



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN YARATILGAN SHART-SHAROITLAR

Karimova Muslimaxon Xurshidbek qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Makroiqtisodiyot
Mutaxassisligi 2-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651271>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 16-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 18-aprel 2026 yil

KEY WORDS

kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlik muhiti, davlat qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy islohotlar, bandlik, soliq tizimi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit va grantlar, statistik tahlil.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy holati, uning iqtisodiyotdagi o'rni hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tahlillar natijasida kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida faoliyat yuritayotgani, bandlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishda muhim ahamiyat kasb etayotgani aniqlangan. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan qulay shart-sharoitlar, soddalashtirilgan soliq tizimi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va institutsional islohotlar kichik biznes rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani asoslab berilgan. Tadqiqotda kichik tadbirkorlikning statistik ko'rsatkichlari, hududiy taqsimoti hamda tarmoqlar kesimidagi ulushi o'rganilib, uning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli yoritilgan. Yakunda sohani yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlovchi barqaror huquqiy asos shakllantirilganini alohida ta'kidlash lozim. O'rta mulkdorlar qatlamini rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishda muhim omil bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadallashtirish maqsadida qulay tadbirkorlik muhiti va mustahkam huquqiy kafolatlar yaratilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirish har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydigan muhim bo'g'in bo'lib, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Respublikamizda ham mazkur sohani qo'llab-quvvatlash va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sanoatning yetakchi tarmoqlarini zamonaviy texnologiyalarga o'tkazishda tobora muhim o'rin egallamoqda. Ular innovatsion g'oyalarni ilgari surish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va yangi axborot texnologiyalarini joriy etish orqali iqtisodiy tizimning muhim bog'lovchi bo'g'ini sifatida

namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotining deyarli barcha sohalarida, jumladan, mashinasozlik, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda faoliyat yuritib kelmoqda. 2024-yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 399,0 mingtani tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,2 birlikni tashkil qildi. 2024-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 13,2 birlikni tashkil etdi.¹

II. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rnini va rivojlanish tendensiyalari.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari soddalashtirilgan va qisqa muddatlarda amalga oshirilmoqda. Xususan, kichik biznes subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish vaqti 30 daqiqani tashkil etadi, bunda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish uchun bir dona, yuridik shaxs sifatida esa ikki dona hujjat talab etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, jumladan dehqon xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik subyektlari davlat ro'yxatidan real vaqt rejimida, 30 minutdan oshmagan muddatda o'tkaziladi. Tadbirkorlikning boshqa shakllari ham shu tartibda tezkor ro'yxatdan o'tkazilib, subyektlarni qayta ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari ham qisqa muddatda amalga oshiriladi. Kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimi joriy etilgan bo'lib, yagona soliq to'lovi stavkasi realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar hajmining 5 foizini tashkil etadi, yagona ijtimoiy to'lov stavkasi esa 15 foiz darajasida belgilangan. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini yuritishda muhim qulaylik yaratadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik va xususiy biznes subyektlari soni ikki barobar ko'payib, ushbu sohada 1 million 400 mingta yangi ish o'rnini yaratilgan. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish maqsadida 16 ta qonun va 100 dan ziyod qaror qabul qilingan bo'lib, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida tekshiruvlarga moratoriy joriy etilgan. Shuningdek, o'zini o'zi ish bilan band qilgan aholi uchun yaratilgan imkoniyatlar natijasida bir yil davomida 500 ming nafardan ortiq fuqaro rasmiy ro'yxatdan o'tib, faoliyatini qonuniy asosda yo'lga qo'ygan. Bundan tashqari, tadbirkorlik sohasidagi islohotlar natijasida Jahon bankining "Biznesni yuritish" xalqaro reytingida O'zbekiston besh yil ichida 141-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilgan. Mazkur natijalar mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligini ko'rsatadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, milliy iqtisodiyotda haqiqiy bozor munosabatlarini joriy etish va mamlakat taraqqiyotini ta'minlash uchun tadbirkorlarga barcha zarur sharoitlar yaratib berish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Nega deganda, tadbirkor iqtisodiyotning va amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy tayanchi hamda lokomotivi hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvida so'zlagan nutqida xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi eng dolzarb muammolar tizimlashtirilib, ularni hal etishga qaratilgan yettita muhim yo'nalish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berildi. Jumladan, soliq tizimini takomillashtirish, soliq yukini imkon qadar kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni qisqartirish, tartib-taomillarni soddalashtirish hamda


¹ ¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi [Elektron resurs]. URL: [https://stat.uz] (https://stat.uz). Murojaat qilingan sana: 2025 yil 14 iyul

xususiy mulk daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

III. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari

2023–2026-yillarga mo'ljallangan dastur doirasida mazkur yo'nalishlarni amalga oshirish uchun 6 trillion so'm miqdorida davlat mablag'lari hamda 1,2 milliard AQSh dollari miqdorida xalqaro moliya institutlari resurslari yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Ushbu dasturda yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta'lim tashkilotlari hamda kamida uch nafar xodimni doimiy ish bilan ta'minlaydigan kichik biznes subyektlari, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan va ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan yuridik hamda jismoniy shaxslar ishtirok etish huquqiga ega. Dastur doirasida ishtirokchilarga keng qamrovli moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish nazarda tutilgan. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 7 yilgacha muddatga, 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratilishi, aylanma mablag'lar uchun esa 3 yilgacha muddatga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foiz punktdan yuqori bo'lgan kreditlar berilishi, shuningdek asosiy vositalarni xarid qilish uchun lizing mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, 100 million so'mgacha kreditlar garovsiz, 150 million so'mgacha kreditlar esa garov talabini 50 foizgacha kamaytirish asosida ajratiladi. 1,5 milliard so'mgacha bo'lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha muddatda to'lash sharti bilan kreditlash mexanizmi ham joriy etilgan. Faoliyati 24 oydan ortiq davom etgan, so'nggi 12 oyda aylanma mablag'lari 1 milliard so'mdan 10 milliard so'mgacha bo'lgan hamda kamida 10 nafar xodimni doimiy ish bilan ta'minlaydigan kichik biznes subyektlariga ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yangi yoki mavjud loyihalarda 20 foizgacha, biroq 1 milliard so'mdan oshmagan miqdorda davlat ulushi ko'rinishida moddiy aktivlar ajratilishi ham nazarda tutilgan. Shu bilan birga innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va yuqori texnologiyali startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so'mgacha grant mablag'lari ajratilishi belgilangan. Mazkur chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlash hamda mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning statistik tahlil: 2024-yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 399,0 mingtani tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,2 birlikni tashkil qildi. Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2024-yil 1- oktabr holatiga, birlikda) aks ettirilgan (1-jadval)²² 2024-yilning yanvar-sentabrida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 53,8% ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan 0,1 punktga ko'paygan. 2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 96,7%, qurilishda – 78,0%, xizmatlar sohasida – 48,3% va sanoatda – 25,1% ni tashkil qildi.

²² O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi [Elektron resurs]. URL: [https://stat.uz] (https://stat.uz). Murojaat qilingan sana: 2025 yil 14 iyul



1. Rasm Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMdagi ulushi (2021-2024- yillarning yanvar-sentabrda, YAQQga nisbatan % da) aks ettirilgan³

2021–2024-yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat tarmog'ida yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'zgaruvchan, biroq umumiy o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. 2021-yilda mazkur ko'rsatkich 22,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 19,9 foizgacha pasaygan. Bu davrda kuzatilgan qisqarish sanoat sohasida yirik korxonalar ulushining ortishi yoki kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish hajmi nisbatan sekinlashgani bilan izohlanishi mumkin. 2023-yilda esa ko'rsatkich yana tiklanib, 21,7 foizga yetgan va bu kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyatidagi faolligi qayta oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2024-yilda ulushning 25,1 foizgacha keskin o'sishi kuzatilgani ushbu sektorning sanoatdagi ishtiroki sezilarli darajada kengayganini anglatadi. Bu holat kichik biznesni sanoatga jalb etish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosish hamda sanoatni diversifikatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosatining ijobiy natijasi sifatida baholanishi mumkin. Mazkur dinamikadan ko'rinib turibdiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat tarmog'idagi ulushi qisqa muddatli tebranishlarga ega bo'lsa-da, umumiy yo'nalish bo'yicha o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu esa sanoat tarmog'ida kichik biznesning roli ortib borayotganini va uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, kelgusida kichik biznesni sanoat tarmog'ida yanada rivojlantirish, ularni yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish hamda texnologik modernizatsiyani kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMdagi ulushi (2021-2024 yilgi ma'lumotlar) [Elektron resurs]. URL: [https://stat.uz] (https://stat.uz). Murojaat qilingan sana: 2025-yil 15-iyul.




1-rasm. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, % da Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulot (YAHM)dagi eng katta ulushiga ega bo'lgan hududlar ⁴



2- rasm.O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni dinamikasi (1- oktabr holatiga, har 1000 aholiga nisbati, birlikda)⁵

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2024- yil 1- oktabr holatiga, har 1000 aholiga, birlikda) 2024- yil 1-,oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 13,2 birlikni tashkil etdi



^{4 4} O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, % da Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulot (YAHM)dagi eng katta ulushiga ega bo'lgan hududlar [Elektron resurs]. URL: [https://stat.uz] (https://stat.uz). Murojaat qilingan sana: 2025-yil 17-iyul.


⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni dinamikasi (1- oktabr holatiga, har 1000 aholiga nisbati, birlikda) [Elektron resurs]. URL: [https://stat.uz] (https://stat.uz). Murojaat qilingan sana: 2025-yil 17-iyul.



3-rasm. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi (2024- yilning yanvar-sentabrida)⁶

2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Toshkent shahri – 19,8%, Xorazm viloyati – 9,1%, Samarqand viloyati – 8,9%, Toshkent viloyati – 8,6%, Farg'ona viloyati – 7,8%, Buxoro viloyati – 6,6%, Surxondaryo viloyati – 6,5% hissalariga to'g'ri keldi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi (2024- yilning yanvar-sentabrida) [Elektron resurs]. URL: [https://stat.uz] (https://stat.uz). Murojaat qilingan sana: 2025-yil 17-iyul.



4-rasm. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylari uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan, birlikda)⁷

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari haqida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2020- yilning yanvar-sentabrda 12,745 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrda kelib, 21,151 taga yetgan yoki 2020- yilning yanvar-sentabrda nisbatan 8 406 taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan kichik korxonalar soni 2020- yilning yanvar-sentabrda 32,530 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrda 32 946 ta yoki 416 taga oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2020- yilning yanvar-sentabrda 5,692 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-sentabrda kelib, 3 992 tani tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib, ushbu yo'nalishda yangi institutsional yondashuv joriy etildi.

Mazkur Farmonga muvofiq, ilgari faoliyat yuritgan Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi negizida yangicha tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lgan "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Ushbu kompaniya Iqtisodiyot va moliya vazirligi ta'sis chilikida faoliyat yuritib, kichik va o'rta biznes subyektlarini tizimli va kompleks qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi muhim institut sifatida shakllandi.⁸

⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylari uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan, birlikda) [Elektron resurs]. URL: [https://stat.uz] (https://stat.uz). Murojaat qilingan sana: 2025-yil 17-iyul.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.11.2023 yildagi PF-193-son 2023 yil 10 noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-193-son Farmoni

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim qismi bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatning barqaror o'sishi va iqtisodiy mustahkamligiga sezilarli hissa qo'shadi. Kichik biznes sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan soddalashtirilgan soliq rejimlari, moliyaviy resurslar va imtiyozli kreditlar, kafillik va subsidiya mexanizmlari joriy etilgan. Shuningdek, tadbirkorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratilgan, ortiqcha tekshiruvlar bekor qilingan va birinchi marta sodir etilgan moliyaviy-xo'jalik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jarimalardan imtiyoz berish tartibi ishlab chiqilgan. Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida biznes-inkubatorlar, o'quv kurslari va ijara asosida yer maydonlarini ajratish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" doirasida davlatning iqtisodiyotdagi ulushi kamaytiriladi, monopoliyalar bartaraf etiladi va xususiylashtirish orqali raqobat kuchaytiriladi. Shu yo'l bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, balki mamlakat iqtisodiyotining mustahkam tayanchiga aylanadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qancha tavsialarni amalga oshirish kerak:

1. Soliq va moliyaviy imtiyozlarni yanada takomillashtirish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari uchun soliq yuki va murakkab tartiblarni kamaytirish.
2. Imtiyozli kreditlar va kafillik mexanizmlarini kengaytirish – yosh tadbirkorlar va startaplar uchun moliyaviy imkoniyatlarni oshirish.
3. Biznes-inkubatorlar va o'quv dasturlarini rivojlantirish – tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish va startaplarni rag'batlantirish.
4. Texnologik yangiliklar va innovatsiyalarni tatbiq etish – ishlab chiqarish va xizmat sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish.
5. Monopoliyalarni bartaraf etish va raqobatni rag'batlantirish – xususiylashtirish orqali bozorni liberallashtirish va yangi sub'yektlar uchun imkoniyat yaratish.

Huquqiy kafolatlar va biznes muhiti barqarorligini ta'minlash – tadbirkorlar faoliyatini cheklovchi ortiqcha tekshiruvlar va tartiblarni kamaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.11.2023 yildagi PF-193-son 2023 yil 10 noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-193-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020 yil 13 oktyabrdagi
3. "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4862-son Qarori
- 4.
5. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" Qonuni. 2000 yil 25 may. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi., 2000 y., № 5.
6. "Xususiy korxonalar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2003 yil 11 dekabr. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami., 2004 y., № 3. 4. Teshabaeva, O.

- N. (2021). Kichik biznes va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati. UzACADEMIA ilmiy jurnali, 87-97.
7. Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. T.: O'quv qo'llanma. "Mehnat", 2002. I.
8. <https://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi
9. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

